

MASOFAVIY TA'LIMDA TALABALARNING TEXNIK IJODKORLIK FAOLIYATLARINI BAHOLASH

To'raqulova Marjona qiyom qizi

Asadova Zarina Axmadovna

Masofaviy ta'limda talabalarning texnik ijodkorlik faoliyatini baholash va uning ahamiyati shundan iboratki, ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish hamda baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash-ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.


Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarining qaysi biri qiyin, qaysi biri esa oson o'zlashtirilishi aniq-ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatini tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi, deb ham aytish mumkin. Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish, bilim, ko'nikma va malakalarni baholash talabaning o'zligini anglashi uchun bir imkoniyatdir.

Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lim oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

Texnik ijodkorlikni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi dars ishlanmalari vositasida o'tkazilgan tajriba sinov ishlari natijasida talabalar bilimini baholashning quyidagi


metodlaridan foydalandik: reproduktiv, ijodiy izlanish, creativ-project hamda faoliyatli-lidership. Mazkur baholash metodlarining qisqacha mazmuniga to'xtalib o'tamiz (1-rasmga qarang).



1- rasm. Talabalarining texnik ijodkorligi rivojlanganligini baholash metodlari

Reproduktiv mezon — baholanayotgan talabalar bu jarayonda ma'lumotlarni, qoidalarni, algoritmlarni turli birikmalar sifatida qayta esga oladi, berilgan topshiriq shakliga ko'ra ularning individual texnik qobiliyatlariga qarab belgilanishi mumkin, bunda materialni aynan o'zgarishsiz takrorlash yoki erkin ravishda so'zlab berishi, texnologik sxemalarni to'g'ri chizishi, jadval va raqamli topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari bilan izohlanishi, talabalarining o'quv faoliyati natijalari taqqoslanishi mumkin. Talabalarining bilimini baholashda baholash mezonlari tabaqalashtirilgan holda belgilanadi. Baholashning ijodiy- izlanish metodida talabaning berilgan topshiriq yuzasidan jamoaviy yondashuvi, faolligi, ijodkorligi, izlanuvchanligi, qat'iyatligi, kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'zining mustaqil qaror qabul qilishi kabi qobiliyatlari majmui tushuniladi. Talabalarining nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini kreativ-project (ijodiy-loyihalash) jihatdan baholashda ularning axborot texnologiyalaridan hamda internet tarmog'idan o'rinli foydalana olish, yangi g'oyalarni loyihalash va qayta ishlash hamda natijani oldindan taxmin qila olish va taqqoslash qobiliyatlarini egallaganlik darajasi bilan belgilanadi.

Faoliyatli-lidership metodi esa talabalarining nazariy va amaliy faoliyatlarini baholash jarayonida qo'llanilib, ko'pincha, tajriba ishlarini bajarishda, berilgan o'quv topshirig'ini qisqa muddatda ijodkorona hamda mahorat bilan bajarish, turli yangi g'oyalarni ishlab chiqarish va natijaga erishishni to'g'ri baholashda aks etadi.



Ijodiy izlanishda talabaning berilgan topshiriq yuzasidan jamoaviy yondashuvi, faolligi, ijodkorligi, izlanuvchanligi, qat'iyatligi, kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'zining mustaqil qaror qabul qilishi kabi qobiliyatlari majmui tushuniladi.

Biz yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda aynan oliy ta'limda masofaviy ta'lim bosqichlari professor-o'qituvchilari faoliyatida faol o'qitish metodlaridan foydalanish, ular faoliyatini optimallashtirish imkonini beruvchi bir qator omillarni belgilaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Tuxtayeva Z.Sh. Content and Improving Higher Yeduction by Solving Problem of Special Items Integration. Yeastern Yeuropean Scientific Journal. – Germany. Ausgabe 1-2019. – 291-294 pajes.
2. To'xtayeva Z.Sh., Atamuradova G.O., Rizoeva G.G'. Kasb ta'limida noan'anaviy ta'lim turlari va ahamiyati. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari hamkorligining dolzarb muammolari Respublika ilmiy-amaliy anjumanining maqolalar to'plami. – T. , 2014. – 335-337 b.
3. To'xtayeva Z.Sh., To'raqulova B.B., Mo'minova M.S. International Yengineering Journal For Research & Developent. Vol.5, Issue 3. Issue 3, April 2020. Impact factor : 6.03 Page 151-155.
4. To'xtayeva Z.Sh., To'raqulova M.Q. Scientific methodological basis of formation of technical creativity skills of talented students. "Mug'allim xem uzluksiz bilimlendirio'" ilmiy metodik jurnal. Qoraqalpoq-2022. № 3/1.
5. To'xtayeva Z.Sh., To'raqulova M.Q. Ta'lim jarayonida faol metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish. «Yengil sanoatda fan-ta'lim va ishlab chiqarishning innovatsion yechimlari» Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 1-tom Buxoro, 2021. 183-186 b
6. To'xtayeva Z.Sh., To'raqulova M.Q., Raxmatova G.N. Talabalarning texnik ijodkorlik va izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirish. Monografiya. Durdona nashriyoti. Buxoro, 2022. 34-39 b.
7. To'xtayeva Z.Sh., To'raqulova M.Q. The Role Of Interimedical Integration In The Formation Of The Creative Activities Of Students. Yeurasian Journal of Science and Technology. England, 2019. № 1 (2). – 7-8 pajes.
8. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2005. – 286 b.